

INKLYUZIV TA'LIMDA UNIVERSAL DIZAYN YONDASHUVI: O'QUV MUHITINI MOSLASHTIRISHNING NAZARIY-ASOSIY YECHIMLARI

Nazarova Dildora Asatovna

Oriental universiteti «Uzluksiz ta'lim pedagogikasi» kafedrası professori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18197067>

Annotatsiya. Maqolada inklyuziv ta'lim jarayonida universal dizayn (UDL) yondashuvining nazariy poydevori va amaliy qo'llanish mexanizmlari tahlil qilinib, ta'lim muhitini barcha o'quvchilar uchun moslashuvchan, adolatli va differensial tarzda tashkil etishning dolzarbligi asoslab berilgan. Maqolada UDL modeli o'quvchilarning individual ehtiyojlari, o'rganish uslublari va rivojlanish imkoniyatlarini inobatga olgan holda ta'lim mazmuni, metodlari va vositalarini qayta loyihalash zarurligi ta'kidlanadi. UDLning uch asosiy tamoyili - ma'lumotni ko'pkanallilik asosida taqdim etish, bilim va ko'nikmalarni turli shakllarda namoyon etish imkoniyatlarini yaratish hamda o'quvchi motivatsiyasi va ishtirokini qo'llab-quvvatlash tizimli ravishda yoritiladi. Shuningdek, pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi, texnik-infratuzilmaviy sharoitlarning yetarliligi va me'yoriy-huquqiy asoslarning mustahkamlanishi UDLni samarali joriy etishning muhim omillari sifatida ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot natijalari universal dizayn yondashuvi barcha o'quvchilar uchun sifatli, teng va inklyuziv ta'lim muhitini yaratishda samarali mexanizm ekanini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, universal dizayn, UDL tamoyillari, ta'lim muhitini moslashtirish, pedagogik differensiasiya, teng imkoniyatlar, moslashuvchan ta'lim modeli, individual o'quv ehtiyojlari.

Annotation. This article examines the theoretical foundations and practical implementation mechanisms of the Universal Design for Learning (UDL) approach within inclusive education. It emphasizes the necessity of creating an adaptable, equitable, and learner-centered educational environment that responds to diverse learning needs. The study highlights the importance of redesigning educational content, teaching methods, and instructional tools based on learners' individual characteristics, developmental potentials, and learning styles. The three core principles of UDL - multiple means of representation, multiple means of action and expression, and multiple means of engagement - are analyzed in a systematic manner. Additionally, the paper identifies teacher professional readiness, adequate technical infrastructure, and strong regulatory frameworks as key conditions for the effective application of UDL. Research findings confirm that universal design is a highly effective mechanism for ensuring high-quality, equitable, and fully inclusive learning opportunities for all students.

Keywords: inclusive education, universal design, UDL principles, learning environment adaptation, pedagogical differentiation, equal opportunities, flexible instructional model, individual learning needs.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические основы и практические механизмы внедрения подхода универсального дизайна обучения (UDL) в условиях инклюзивного образования. Подчеркивается необходимость создания адаптивной, справедливой и ориентированной на обучающегося образовательной среды, учитывающей многообразие учебных потребностей. Обосновывается важность

переосмысления содержания образования, методов преподавания и учебных средств с учетом индивидуальных особенностей, потенциала развития и стилей обучения учащихся. Последовательно раскрываются три ключевых принципа UDL - множественные способы представления информации, множественные способы выражения знаний и деятельности, а также множественные способы вовлечения и мотивации. Дополнительно акцентируется внимание на таких условиях эффективного внедрения UDL, как профессиональная готовность педагогов, достаточная техническая инфраструктура и нормативно-правовое обеспечение. Результаты исследования подтверждают, что универсальный дизайн является действенным механизмом обеспечения качественного, равного и полностью инклюзивного образования для всех обучающихся.

Ключевые слова: инклюзивное образование, универсальный дизайн, принципы UDL, адаптация образовательной среды, педагогическая дифференциация, равные возможности, гибкая модель обучения, индивидуальные учебные потребности.

Zamonaviy ta'lim tizimida har bir o'quvchining individual rivojlanish sur'ati, ehtiyojlari va o'rganish uslublarini inobatga oluvchi yondashuvlarni joriy etish tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. Inklyuziv ta'lim konsepsiyasi ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, barcha bolalar - nogironligi bo'lgan, ijtimoiy yoki til jihatdan farqlanuvchi, turli madaniy muhitda shakllangan o'quvchilar uchun qulay, adolatli va ta'lim jarayoniga to'laqonli qo'shila oladigan muhitni yaratishni maqsad qiladi. Shu nuqtai nazardan universal dizayn modeli ta'lim jarayonini boshidan boshlab barcha o'quvchilar uchun moslashtirilgan, moslashuvchan va differensial ko'rinishda loyihalashga xizmat qiluvchi samarali metodik yondashuv sifatida e'tirof etilmoqda. Mazkur maqola UDLning nazariy asoslari, tamoyillari va inklyuziv ta'lim jarayoniga tatbiq etilish mexanizmlarini yoritadi.

Hozirgi davr ta'lim tizimida har bir o'quvchining shaxsiy ehtiyojlari, individual rivojlanish sur'ati hamda ijtimoiy sharoitlarini inobatga olgan holda o'qitish jarayonini tashkil etish zarurligi tobora keng e'tirof etilmoqda. Inklyuziv ta'lim konsepsiyasi nafaqat nogironligi bo'lgan bolalar, balki madaniy, til, iqtisodiy yoki ijtimoiy omillar bo'yicha farqlanuvchi barcha o'quvchi guruhlariga nisbatan qo'llanishi mumkin bo'lgan keng qamrovli pedagogik yondashuvdir. Inklyuziya murakkab va tizimli jarayon bo'lib, uning muvaffaqiyati barqaror ijtimoiy muhit, demokratik qadriyatlar va pedagogik moslashuvchanlikka tayangan holda rivojlanadi. Shu sababli inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish faqat infratuzilmani moslashtirish bilangina cheklanmay, balki o'qitish uslublari, baholash mezonlari, ta'lim vositalari va metodikasini ham tubdan qayta ko'rib chiqishni talab etadi. Inklyuziv ta'lim turli farqlarga ega bo'lgan o'quvchilarni umumiy ta'lim muassasalariga jalb etish, ularni kamsitishsiz, uyg'un, moslashuvchan muhitda ta'lim olish huquqini ta'minlovchi pedagogik yondashuvdir. Ta'limda inklyuzivlik faqat integratsiya emas, balki teng imkoniyat va to'liq ishtirokdir. Bunda o'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos moslashuvchan metodikalar, vositalar va yondashuvlar muhim ahamiyatga ega.

Shu nuqtai nazardan, “universal dizayn” yondashuvi zamonaviy ta'lim jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'limning universal dizayni (Universal dizayn for learning) (UDL) modeli ta'limning ilk davridan boshlab barcha o'quvchilarning ehtiyojlari, o'rganish uslublari va imkoniyatlariga mos ravishda loyihalashni nazarda tutib, har bir o'quvchi uchun qulay, moslashuvchan va inklyuziv ta'lim muhitini yaratishni maqsad qiladi.

Universal dizayn har bir foydalanuvchining imkoniyatlaridan qat’iy nazar, unga mos keladigan tizimlar va muhitlar yaratish tamoyilini nazarda tutadi. Ta’lim kontekstida bu tushuncha “Universal Design for Learning” (UDL) modeli orqali konkretlashtiriladi. UDL modeli barcha o’quvchilar, xususan, nogironligi bo’lgan o’quvchilar uchun ta’lim jarayonini shaxsiylashtirish va moslashtirishni ko’zlaydi. Ushbu yondashuv, o’quv dasturlarini faqat tayyor foydalanuvchiga emas, balki ehtiyojlar doirasida moslab ishlab chiqishni taklif etadi.

UDL uch asosiy tamoyil asosiga quriladi:

1. Ma’lumotni taqdim etishda turli usullardan foydalanish: turli-tuman formatlar (audio, vizual, matn, interfaol), ta’lim mazmunini o’quvchilarning turli idrok etish, o’zlashtirish, qabul qilish shakllariga moslashtirish.
2. O’quvchining bilim va ko’nikmalarini ifoda va namoyon etish uchun turli faoliyat shakllari va yo’llarni ta’minlash: ijodiy ishlar, loyihalar, og’zaki taqdimotlar, yozma topshiriqlar.
3. Ishtirok hamda motivatsiyani rag’batlantirish: tanlov imkoniyatlari, shaxsiy qiziqishlarga asoslangan differensial topshiriqlar, ijtimoiy faollik va rag’bat.

Universal dizayn yondashuvi pedagogik amaliyotda keng imkoniyatlar yaratib, uning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

Barcha uchun moslashuvchan ta’lim muhiti: ushbu yondashuv orqali barcha o’quvchilar uchun darslar tushunarli, qiziqarli va foydali bo’ladi.

O’qituvchilar uchun osonlashgan rejalashtirish: Agar dars avvaldan turli qobiliyatlar uchun moslashtirilsa, keyinchalik alohida adaptatsiyaga ehtiyoj qolmaydi.

Maxsus ehtiyojli bolalarni ajratmaslik: Universal dizayn inklyuziv ta’limning ajralmas qismi bo’lib, diskriminatsiyani oldini oladi.

Texnologiyadan samarali foydalanish: raqamli texnologiyalar orqali individual yondashuvga erishish mumkin (masalan, planshet (ekran), audiokitoblar, subtitrlar).

Universal dizaynni ta’lim jarayoniga muvaffaqiyatli joriy etish o’zaro uzviy bog’liqlikka tayanuvchi bir nechta muhim omillar: pedagoglarning tayyorgarligi, moddiy-texnik infratuzilmaning yetarli bo’lishi, qonunchilik asoslari va metodik qo’llab-quvvatlash vositalarga bog’liq.

Alohida qayd etish lozim-ki, pedagoglar mazkur tizimni bevosita amaliyotga tatbiq etuvchi asosiy kuch sanaladi. O’qituvchining universal dizayn (UDL) tamoyillarini chuqur tushunmasligi yoki amalda qanday qo’llashni bilmasligi ushbu yondashuvning besamar ekanligini keltirib chiqaradi. Shu bois o’qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish, UDL bo’yicha maxsus kurslardan o’tishlari hamda o’zaro tajriba almashish seminarlarida ishtirok etishlari juda muhim sanaladi. Bunda pedagoglarning metodik tavsiyalar, moslashuvchan (adaptiv) texnologiyalardan foydalanish, individual yondashuv va multimedia kontentlar bilan ishlash ko’nikmalari shakllantirilishi muhim.

Yana bir muhim masala shundan iborat-ki, universal dizaynni joriy etish uchun maktablarda texnik vositalar (interaktiv doskalar, audio-video texnika, ekran o’quvchi moslamalar, maxsus brayl printerlari), ta’lim muhitini moslashtirish (panduslar, taktil belgilashlar, yoritish, shovqindan izolyatsiyalash (himoyalash)) va raqamli platformalarning imkoniyatlaridan foydalanish talab etiladi. Mazkur omil moddiy-texnik negizning yangilanishi va uzluksiz rivojlanishini nazarda tutadi.

Shuningdek, UDL tamoyillarining huquqiy asosda qo’llab-quvvatlanishi, ya’ni davlat siyosatida inklyuzivlik va teng imkoniyatlar ustuvor yo’nalish sifatida belgilanishi shart. Buning uchun qonunchilik bazasi, me’yoriy hujjatlar va ta’lim standartlari universal dizayn tamoyillarini

o'z ichiga olgan holda ishlab chiqilishi va amalda tatbiq etilishi zarur. O'zbekiyonda bu borada faol tadbirlar amalga oshirib borilmoqda.

Yana bir muhim omil: davlat va mutasaddi tashkilotlar tomonidan metodik qo'llanmalar, amaliyotga yo'naltirilgan resurslar, ilmiy-uslubiy tavsiyalar yaratilishi va pedagoglarga yetkazilishi tizimli qo'llab-quvvatlashning muhim shakli hisoblanadi. Bu borada ham mamlakatimizda muhim ishlarni amalga oshirib borishning dastlabki bosqich ishlari yo'lga qo'yilmoqda.

Inklyuziv ta'limda universal dizayn yondashuvi nafaqat nogironligi bo'lgan bolalar, balki turli madaniy, til, iqtisodiy va ijtimoiy muhitdan kelgan barcha o'quvchilar uchun sifatli ta'lim olish imkoniyatini ta'minlaydi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning individual imkoniyatlari, qiziqishlari, o'rganish uslublariga mos ravishda o'qitish jarayonini tashkil etishni ko'zda tutadi. Aynan shu jihati bilan UDL modeli inklyuziv ta'limning eng qulay va samarali shakli sifatida e'tirof etiladi.

UDL konsepsiyasining asosiy afzalligi turli ehtiyojlarga ega o'quvchilar uchun yagona, adolatli, differensial va moslashuvchan o'quv muhitini yaratishdir. Bu jarayonda o'quvchilarning o'z-o'zini anglash, mustaqil qaror qabul qilish, teng ishtirok va ijtimoiy uyg'unlashuvi kabi kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyati paydo bo'ladi. Universal dizayn asosidagi yondashuvlar orqali ta'lim faqat bilim beruvchi tizim emas, balki har bir bolaning qadr-qimmatini hurmat qiluvchi, tenglikka asoslangan ijtimoiy institutga aylanadi. Shu bois, ta'lim siyosatida universal dizayn konsepsiyasini joriy etish zamonaviy va insonparvar jamiyat qurilishining ajralmas qismi sanaladi. Bunda pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi, ta'lim vositalari va metodikalarning yangilanishi, infratuzilmaning moslashuvi va davlat siyosatida inklyuzivlik tamoyillarining mustahkamlanishi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayniqsa, o'qituvchilarni UDL tamoyillari bo'yicha uzluksiz malakasini oshirish, ularga metodik-psixologik yordam ko'rsatish va tajriba almashuvini rag'batlantirish inklyuziv ta'limning muvaffaqiyatini belgilab beradi.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'limda universal dizayn yondashuvi har bir o'quvchi uchun ta'limga bo'lgan huquqni real hayotga tatbiq etadi. UDL faqat ta'lim tizimidagi yangi metod emas, balki adolat, tenglik va inson qadrlarining ustuvorligini ta'minlovchi ta'lim falsafasidir. Ushbu yondashuv orqali universal dizayn tamoyillarini keng joriy etish orqali O'zbekistonda zamonaviy, inklyuziv va global standartlarga mos ta'lim tizimini shakllantirish imkoni yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qoninu. 2020.
3. «Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi». O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.
4. «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4860-son qarori.

6. Broderick, A., Mehta-Parekh, H., Reid, D. (2005). Differentiating Instruction for Disabled Students in Inclusive Classrooms. *Theory Into Practice*, 44(3), 194-202.
7. Dewsbury, B., Brame, C. (2019). *Inclusive Teaching*. CBE Life Sciences Education.
8. Florian, L., Black-Hawkins, K. (2011). Exploring Inclusive Pedagogy. *British Educational Research Journal*. 28.
9. Nazarova, D. A. *Surdopedagogika. Darslik. Toshkent. «Metodist nashriyoti» 2024.*
10. Nazarova, D. A. (2020). «Aspects of Orientation of Students of the Professional Development Courses in the Direction Managers of Educational Institutions' to the Effective Organization of Inclusive Education.» *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(8), 7-12.
11. Nazarova Dildora Asatovna. Issues of involving children with hearing in inclusive education.// *European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE)* Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 2 No.12, December 2021,ISSN: 2660-5643/ Page 149.
12. Л. М. Волосникова, И. В. Патрушева. Проектирование инклюзивных образовательных сред на основе универсального дизайна. Обзор научных публикаций. Исследование выполнено в рамках государственного задания FEWZ-2023-0007 Министерства науки и высшего образования Российской Федерации. EDN QVZDSH <https://www.doi.org/10.33910/1992-6464-2024-212-81-92>
13. Э.К.Наберушкина, Е.А.Радченко, Е.Р.Мирзаева. Инклюзивный дизайн (обзор зарубежных концепций). *Теория и практика общественного развития*. 2023. № 2. С. 30-35. *Theory and Practice of Social Development*. 2023. No. 2. P. 30–35. Научная статья УДК 316.728:72.012 <https://doi.org/10.24158/tipor.2023.2.3>